

ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH
ORQALI XAVFSIZLIKNI OSHIRISH

Obidova Feruza

Andijon davlat texnika instituti Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti

*Mehnat muhofazasi kafedrasi Mehnat muhofazasi va
texnikaxavfsizligi yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

Ataxanovich Abdurashid Abdurahmonov

*Andijon davlat texnika instituti Mashinasozlik texnologiyasi
fakulteti Mehnat muhofazasi kafedrasi professori*

Annotatsiya: Ushbu maqola ishlab chiqarish jarayonida inson salomatligiga tahdid soluvchi omillar oldini olish haqida.

Kalit so‘zlar: Xavfsizlik, zamonaviy raqamli texnologiyalar, harorat, namlik, chang, shovqin.

Kirish: Ishlab chiqarish jarayonida inson salomatligiga tahdid soluvchi omillar ko‘p va xilma-xildir. Bularning o‘z vaqtida aniqlanishi va nazoratga olinishi mehnat xavfsizligini ta’minlashda eng muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy raqamli texnologiyalar — xususan, Internet of Things (IT) tizimlari va aqlii sensorlar — sanoat xavfsizligida yangi davrni boshlab bermoqda.

Ushbu texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish hududida harorat, namlik, chang, shovqin, kimyoziy gazlar va boshqa xavfli omillarni doimiy ravishda o‘lchash, monitoring qilish va xavf aniqlanganda avtomatik ogohlantirish imkoniyati yaratiladi. Bu tizim ishchilarни doimiy kuzatish emas, balki ularning salomatligini saqlash va baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ayrim davlat sanoat korxonalarida ishlab chiqilgan sensorlar tizimi sex ichidagi harorat va gaz konsentratsiyasi me’yordan oshgan holatda avtomatik tarzda signal beradi va ishlab chiqarish liniyasini vaqtincha to‘xtatadi. Shu orqali yong‘in, portlash yoki zaharlanish xavflarining oldi olinadi. Aynan shu texnologiyalar orqali mehnat sharoitining barqarorligi ta’milanadi, boshqaruv esa inson aralashuvisz, tizim darajasida amalga oshiriladi.

Yana bir davlatda esa xavfsizlikning texnologik yechimlari bilan birga xodimlar uchun kiyiladigan qurilmalar ham keng qo‘llanilmoqda. Bular orqali ishchilarning tana harorati, yurak urishi, nafas olish ritmi va harakat traektoriyasi nazoratga olinadi. Ushbu yechimlar og‘ir muhitda ishlovchi xodimlarga o‘z salomatligini oson kuzatish va ortiqcha zo‘riqishni oldindan bilish imkonini beradi.

Shuningdek, yana bir ilg‘or yondashuvga ega bo‘lgan davlatda ishlab chiqarish jarayoni ichki xavfsizlik platformasi orqali boshqariladi. Sensorlardan olingan

ma'lumotlar sun'iy intellektga ega dasturiy ta'minot orqali tahlil qilinadi va xavf tug'ilishi mumkin bo'lgan hududlar avtomatik belgilanadi. Korxona xavfsizlik xizmati esa har qanday signalga real vaqt rejimida javob qaytaradi.

O'zbekiston ishlab chiqarish tarmog'ida bu kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish hali boshlang'ich bosqichda. Biroq mavjud salohiyatdan kelib chiqib, har bir sexda chang, issiqlik, shovqin, gaz va yorug'likka doir aqlli o'chagichlarni o'rnatish, ulardan kelgan ma'lumotlarni markazlashtirilgan platformaga uzatish va ushbu tizimni boshqarish uchun alohida xavfsizlik dispatcherlik markazini tashkil etish orqali katta yutuqlarga erishish mumkin. Aqli sensorlar va IT texnologiyalari yordamida xavflarni real vaqt rejimida aniqlash, faqat biror texnik yangilik emas, balki xavfsizlikka bo'lgan yondashuvni tubdan o'zgartiruvchi vositadir. Ko'plab davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli xavfsizlik monitoringi nafaqat inson salomatligini saqlash, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ham muhim o'rinn tutadi .

Sanoat korxonalarida xavfsizlikni zamon talablari darajasida ta'minlash uchun faqatgina an'anaviy nazorat va ogohlantirish tizimlariga tayanish yetarli emas. Bugungi kunda ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari doirasida real vaqt rejimida ishlaydigan raqamli kuzatuv va boshqaruv tizimlari tobora keng joriy etilmoqda. Ularning eng samarali va innovatsion ko'rinishlaridan biri bu — IT texnologiyasi va unga asoslangan sensor tarmoqlaridir.

IT texnologiyasi yordamida ishlab chiqarish hududlarida turli xavf omillarini aniqlovchi datchiklar o'rnatiladi. Ular muhitdagi havo sifati, chang miqdori, gazlar konsentratsiyasi, shovqin darajasi, harorat, yorug'lik, havo namligi kabi fizikaviy parametrlarni doimiy tarzda kuzatib boradi va olingan ma'lumotlarni markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga uzatadi. Bu tizim, o'z navbatida, xavfli holatlar yuzaga kelganda avtomatik tarzda ogohlantiradi, ishlab chiqarish uskunalarini to'xtatadi yoki evakuatsiya signallarini ishga tushiradi.

Bunday yondashuv ilg'or texnologiyalarni faol joriy qilayotgan bir qator davlatlar tajribasida allaqachon o'z samarasini bergen. Jumladan, ayrim sanoat markazlarida sex va tsexlarda joylashtirilgan aqli sensorlar zararli gaz yoki issiqlik darajasi me'yordan oshgan holatda ishlab chiqarish liniyasini avtomatik tarzda to'xtatadi. Yana boshqa mamlakatlarda ishlab chiqilgan tizimlar esa nafaqat xavfni aniqlaydi, balki ishchilarning xavfli hududlarga kirishini avtomatik nazorat qiladi va o'z vaqtida ogohlantiradi. Bu texnologiyalar inson omilining zaif joylarini bartaraf etish, xavfni erta bosqichda aniqlash va jarayonni avtomatlashtirish orqali ishchilar salomatligini himoya qiladi. Yana bir muhim yo'nalish bu — xodimlar uchun mo'ljallangan "kiyiladigan" qurilmalar. Bunday vositalar ishchilarning tana harorati, yurak urishi, kislород miqdori yoki harakat faolligini real vaqt rejimida kuzatib, ortiqcha zo'riqish, issiqlik stressi yoki xavfli harakatlar yuzaga kelgan taqdirda markazga signal yuboradi. Ushbu tizimlar inson salomatligining individual monitoringini ham ishlab chiqarish

xavfsizligi bilan uyg‘unlashtiradi.

Natija: O‘zbekistonda bunday tizimlar hali to‘liq joriy etilmagan bo‘lsa-da, ularni ishlab chiqarish sohalariga bosqichma-bosqich tatbiq etish korxonalar xavfsizligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Har bir sexda aqlii sensorlar va markaziy nazorat tizimlarini yaratish orqali ish muhitining holati doimiy kuzatib boriladi, bu esa muammolarni oldindan aniqlash va tezkor chora ko‘rishga zamin yaratadi. IT va sensor texnologiyalari yordamida xavflarni real vaqt rejimida aniqlash sanoat xavfsizligini raqamli asosda boshqarishga yo‘l ochadi. Bu esa ishlab chiqarish madaniyatida xavfsizlikni nafaqat muammoga reaksiya sifatida, balki uzlusiz monitoring va oldini olish tizimi sifatida qarashga o‘rgatadi. Har qanday ilg‘or tajriba shuni ko‘rsatadiki, xavfni erta aniqlash va avtomatik boshqaruv orqali mehnat muhofazasi sezilarli darajada takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yormatov G‘. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –Toshkent, “Aloqachi”, 2009 yil. –348 b.
2. G‘oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. – Toshkent, “Yangi asr avlod”, 2007. – 264 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bu borada “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 263-sonli qarori
4. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2022 yil 17 fervaldagagi KR-09/200-sonli xatiga 1-ilova
5. E.I.Ibragimov., S.Gazinazarova., O.R.Yuldashev , “Mehnat muhofazasi maxsus kursi” Darslik. –Toshkent 2014.
6. I.A.Bakiyeva., O‘quv qo‘llanma. –T.: 2019.
7. Mirziyoev SH. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. - Toshkent. O‘zbekiston,NMIU,2017y.
8. “Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimini sanitargigienik normativlari” O‘zR SanQvaN № 0324-16 Rasmiy nashr Toshkent – 2016 y.
9. “Texnogen risk va texnik tizimlar ishonchliligi” SH.Narziev, R.CHoriev, M. Aliboev, X.Pulatov, R.Rajabov, SH.Toirov, -T.: «Tafakkur» nashriyoti Darslik 2021y.